

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQOBAT MUHITINI RIVOJLANTIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI

Soloxitdinov Faxritdin Murodovich

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Namangan viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya

O‘zbekiston iqtisodiyotida raqobat muhitini rivojlantirish uchun bir necha muammo va yechimlar mavjud. Bu muammo-yechlarni yechish, iqtisodiy o‘zlashtirish, tijoratni rivojlantirish va moliyaviy reformalarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek mazkur maqolada ham O‘zbekiston iqtisodiyotida raqobat muhitini rivojlantirish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy diversifikatsiya, infrastruktura, monopol, ustun mavqega, marketing strategiyasi, qonunchilik hujjatlarini, investitsiyalar;

Абстрактный

Существует несколько проблем и решений по развитию конкурентной среды в экономике Узбекистана. Это включает в себя решение проблем, расширение экономических возможностей, развитие торговли и финансовые реформы. В данной статье также говорится о развитии конкурентной среды в экономике Узбекистана.

Ключевые слова: Диверсификация экономики, инфраструктура, монополия, доминирующее положение, маркетинговая стратегия, законодательные документы, инвестиции;

Abstract

There are several problems and solutions for the development of a competitive environment in the economy of Uzbekistan. This includes problem solving, economic empowerment, trade development and financial reforms. This article also talks about the development of the competitive environment in the economy of Uzbekistan.

Key words: Economic diversification, infrastructure, monopoly, dominant position, marketing strategy, legislative documents, investments;

Raqobat muhitini vujudga keltirishda davlat tomonidan monopoliyaga qarshi siyosat olib borilishi, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilishi, bu yo‘nalishda qonunchilik bazasi yaratilishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, bir paytning o‘zida raqobatga keng yo‘l ochish va monopoliyani imkon qadar qisqartirish yaxshi samara beradi. Mamlakatimizda ham keyingi yillarda bu masalaga

jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Soha oldiga katta vazifalar qo'yilyapti. Ammo natija kutilganidek emas.

Bozor iqtisodiyotiga o'tgan har qanday davlatda, sog'lom raqobat va adolatli savdo qoidalarini juda katta rol o'ynaydi. Chunki, sog'lom raqobat mehnat unumdorligini oshiradi, yangi ish joylarini yaratish, innovatsiyalar rivoji, eng muhimi, iste'molchilar farovonligini ta'minlaydi. Sog'lom raqobat narxlar pasayishi, tovar-xizmatlar sifati yaxshilanishiga olib keladi. Ayni shu yo'nalishdagi keng ko'lamli ishlar, vazifalar qo'mitamiz zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ularga imkon qadar e'tibor qaratilmoqda.

Ko'rilayotgan choralar misolida ko'rish mumkinki, keyingi yillarda mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari (alkogolsiz ichimliklar, sharbatlar, non va non, go'sht va sut, qandolat mahsulotlari va boshqalar) hamda ayrim nooziq-ovqat tovarlari (mebel, gilamlar va gilam mahsulotlari, to'qimachilik buyumlari va boshqalar) bozorida yuqori darajada sog'lom raqobat muhitiga erishildi. Qurilish, kabel-o'tkazgich materiallari, pul o'tkazmalari xizmatlari bozorlarida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar monopoliyasi bartaraf etildi. Lekin, shu bilan birga, boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, yurtimizda ham davlat ishtirokidagi monopol korxonalar ko'pligi, ularning xususiy sektor bilan teng bo'lmagan sharoitda raqobatlashib kelayotgani va tarmoqlarni boshqaradigan vazirlik va idoralar zimmasiga raqobatni rivojlantirish funksiyasi yuklatilmagani, qator sohalarda sog'lom muhitni vujudga keltirishga to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, narxlarning keragidan ortiqcha tartibga solinishi, imtiyoz va preferensiyalar tizimi samarasizligi, biznes sub'ektlari faoliyatini tartiblashtirish darajasi yuqoriligi, boshqaruv idoralari raqobatni rivojlantirishdan manfaatdor emasligi, raqobatga qarshi holatlar bilan kurashishning huquqiy mexanizmlari takomillashmagani ham tizimli muammolarga sabab bo'lgan.

Bu o'rinda eng avvalo, monopol yoki ustun mavqega ega bo'lish qonunbuzilishmi yoki bozor iqtisodiyoti qoidalariga asosan tabiiy holatmi, degan savolga javob berishimiz kerak. Iqtisodiyot nazariyasiga asosan, korxonalar monopol bo'lib qolishi to'g'ridan-to'g'ri qonunbuzilishi hisoblanmaydi. Chunki, korxonalar to'g'ri marketing strategiyasini qo'llagan holda, tovar yoki xizmatlari sifatli va arzon bo'lgani, iste'molchilar ishonchini qozongani uchun ham monopol yoki ustun mavqega ega bo'lib qolishi mumkin. Lekin, ustun mavqega ega bo'lgandan so'ng, buni suiiste'mol qilish, klassik monopoliyaga qarshi qonunchilik talablariga muvofiq, qonunbuzilish holati hisoblanadi. Bunday holatlarga narxni asossiz oshirish, sotib olingan tovarga qo'shimcha tovar qo'shib berish, boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarish maqsadida, tovarlarni vaqtincha tannarxidan past narxda sotish va hokazolar kiradi. Amaldagi qonunchilikka asosan, faqatgina statistik ma'lumotlarga asoslanib, korxonaning tegishli bozordagi ulushi hisoblab chiqilgan va agar u 50 foiz yoki undan

yuqori bo‘lsa, monopol korxonalar ro‘yxatiga kiritilgan. Natijada, biror qonunbuzilishini sodir etmagan korxonalar ham mazkur ro‘yxatga qo‘shilib qolgan. Bu bir qator qo‘shimcha hisobotlarni talab etish va byurokratizmga olib keladi.

Yangi yondashuv bo‘yicha esa, faqatgina ustun mavqeni suiistemol qilgan monopol korxonalarga nisbatan chora ko‘riladi. Endilikda korxonaga bozordagi xatti-harakatiga qarab baho beriladi. Monopol tovarlar ro‘yxatini keskin qisqartirishga qaratilgan “Yo‘l xaritasi”ning asosiy vazifasi — monopol sohalarni qayta ko‘rib chiqib, nimaga bu bozorlarda raqobat rivojlanmayotganini o‘rganish, tegishli bozorga kirish to‘siqlarini aniqlash hamda olib tashlash, shu bozorlarga xususiy sektor kirishini yengillashtirishdan iborat. Albatta, bunday choralar yuqorida sanab o‘tilgan muammolarga yechim bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Tahlillarga qaraganda, monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish holatlarining aksariyati, tushunib yoki tushunmovchilik natijasida, davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat organlari tomonidan sodir etilmoqda. Shu bois bu tizim ana shunday korxonalarda joriy etilmoqda. Komplayens tizimi monopoliyaga qarshi davlat organi ishtirokida ishlab chiqiladi. So‘ngra ko‘rsatib o‘tilgan tashkilotlarda monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzishga olib keladigan holatlar tahlil etilib, ularning oldini olish maqsadida ichki idoraviy hujjat sifatida qabul qilinadi. Ushbu tizim ko‘rsatilgan tashkilotlarni faqat jazolash emas, balki qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida preventiv mexanizmni joriy etishga qaratilgan.

Asosiy vazifalar — davlat organlari va davlat ishtirokidagi korxonalarda monopoliyaga qarshi davlat siyosati va huquqiy asoslarini keng targ‘ib qilish, respublikadagi oliy ta‘lim muassasalarida raqobat siyosati va huquqiy asoslarini o‘qitadigan kurslar tashkil qilish, monopoliyaga qarshi organ faoliyatini tubdan takomillashtirish, hudud va tarmoqlarda raqobatni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish. Chunki, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini qo‘llashda chuqur iqtisodiy nazariya, yurisprudensiya, amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni uzluksiz tayyorlash tizimi yaratilmagan. Masalan, oliy ta‘lim tizimida faqatgina bitta muassasada (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish yo‘nalishida magistratura tashkil qilingan. Shu bois nufuzli iqtisodiy ta‘lim muassasalarida monopoliyaga qarshi tartibga solish va raqobatni himoya qilish bo‘yicha alohida kurslar, ta‘lim yo‘nalishlarini ochish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu orqali monopoliyaga qarshi organning institutsional salohiyatini oshirish ta‘minlanadi.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish muammolarini hal qilish uchun bir qator strategiyalarni amalga oshiradi. Bu strategiyalar orasida, raqobat muhitini rivojlantirish muammolari va ularni hal qilish uchun quyidagi yechimlar keng qamrovli tartibda amalga oshiriladi:

1. Investitsiyalar va infrastruktura rivojlanishi: O‘zbekiston, infrastruktura tarmoqlarini, o‘qish yuksakligini, transport va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va yangi investitsiyalarni jalb qilishga ishora qilmoqda. Bu, iqtisodiyotni kengaytirish va ko‘maklashni yengillash uchun juda muhimdir.

2. Yuridik va institutsional qo‘llab-quvvatlash: Yuridik va institutsional tizimning yangilanishi va isloh qilinishi, investitsiyalar uchun rivojlanadigan muhitni yaratishda asosiy qo‘shimcha shartlar bilan birga, tadbirkorlar uchun raqobat muhiti yaratishga yordam beradi.

3. Tadbirkorlik faoliyatini oshirish: Tadbirkorlik faoliyatini oshirish, yangi korxonalar yaratish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va eksport qilishga yo‘l ochish uchun strategik yechimlardan biridir. Bunda, tadbirkorlarga qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlikning innovatsion rivojini ta‘minlash juda muhimdir.

4. Ma‘lumot texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalari rivojlanishi: Ma‘lumot texnologiyalari va axborot kommunikatsiyalari sohasida investitsiyalar va rivojlanishni oshirish, iqtisodiyotni zamonaviy va raqobatqaror qiladi.

5. Xalqaro savdo va tashqi investitsiyalar: O‘zbekiston xalqaro savdo munosabatlari va tashqi investitsiyalarni jalb qilishga urinadi. Bunda, savdo shartnomalari va urinlar orqali xalqaro tijoratda o‘z iste‘molchiligi rivojlanadi.

6. Turizm rivojlanishi: O‘zbekistonning zamonaviy shaharlarini, tarixiy obrazlarini va madaniyat qadriyatlarini ko‘rish uchun turizm sohasini rivojlantirish muhimdir. Turizm sohasini rivojlantirish, mamlakatga valyuta kiritishga yordam beradi va yangi ish o‘rinlari yaratishga imkoniyat beradi.

7. Texnologiyaviy rivojlanish va innovatsiyalar: Texnologiyaviy rivojlanish va innovatsiyalar tizimi orqali yangi yechimlar va mahsulotlar ishlab chiqarish, tashqi investitsiyalar va eksportni oshirish uchun muhimdir.

8. Iqtisodiy diversifikatsiya: Iqtisodiy diversifikatsiya, tarmoqni qo‘llab-quvvatlash, iste‘molchilarni o‘zlashtirish va iqtisodiy tahlilatni amalga oshirish orqali mamlakatning qondirishini kattalashtiradi.

9. Kadrlar tayyorlash va bilim olish: O‘zbekistonning kadrlarini tayyorlash va o‘qitish tizimini rivojlantirish va tarbiyalash juda muhimdir. Bu, tadbirkorlik va innovatsiyani oshirish va mamlakatning iqtisodiyoti rivojlanishini ta‘minlashga o‘z ta‘sirini qo‘shadi.

10. Sanoat va energiya sohasini rivojlantirish: Sanoat sektori va energiya tarmoqlarini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Albatta, qonunchilikni qayta ko‘rib chiqib, zamon talabiga javob beruvchi normalarni hayotga tatbiq etish orqali bir qator muammolar bartaraf etiladi. Chunki, bu borada ham kamchiliklar bor. Masalan, amaldagi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi qonun doirasiga bir qator raqobatni rivojlantirsa bo‘ladigan sohalar ham kirib qolgan.

Jumladan, ushbu sohada ishlamoqchi bo‘lgan har qanday korxonada faoliyati va narxlari davlat tomonidan boshqariladi. Bu esa investor va ishbilarmonlar uchun jozibadorlikning pasayishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun bu qonunni chuqur tahlil qilib, temir yul tizimida yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari, energetika sohasida elektr energiyasi ishlab chiqish va sotish xizmatlarini chiqarib tashlash, bu sohalarda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, iqtisodiyotimizning ushbu tarmoqlariga investitsiyalar kiritish, yangi ish o‘rinlarini ochish imkoniyatlaridan foydalanishga o‘tish lozim. Shuningdek, “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qator qonunosti hujjatlar ham qayta ko‘rib chiqiladi va yurtimizda raqobatni himoya qilishning yangi tizimi, kartel, ustun mavqeni suiiste‘mol qilish, nohalol raqobatning oldini olish, davlat xaridlari, iqtisodiy konsentratsiyaga ruxsat berishning hozirgi davrga mos qoidalari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
3. Robert M. Grant. Contemporary Strategy Analysis (Wiley), The 9th Edition, John Wiley & Sons, Inc. 2016.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
5. Claude Diderich. Design Thinking for Strategy: Innovating Towards Competitive Advantage. – Springer Nature Switzerland AG 2020.